2-son, 2026-yil

INNOVATSION PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

Ilmiy jurnal

ISSN: 2181-4465

INNOVATIVE PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY

Scientific journal

INNOVATSION PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

Ilmiy jurnal

INNOVATIVE PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY

Scientific journal





ORIENTAL UNIVERSITETI

INNOVATSION PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

Ilmiy jurnal

(Ikkinchi son)

Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2025-yil 24-sentyabrdagi 375/5-son qaroriga muvofiq pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga “Innovatsion pedagogika va psixologiya” ilmiy jurnali kiritilgan.

Toshkent – 2026

“Innovatsion pedagogika va psixologiya”
ilmiy jurnalining tahrir hay’ati:

Bosh muharrir:
Nishanova Z. T. – psixologiya fanlari doktori, professor,
Xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a’zosi (akademigi)
Bosh muharrir o‘rinbosari:
Egamberdiyeva F.O. – pedagogika fanlari nomzodi, professor
Mas’ul muharrir:
Umarov B.M. – psixologiya fanlari doktori, professor

Musahhih:
Norkulova G.
Tahrir hay’ati a’zolari:

Kozlov V.V.	*Psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya);*
Lekerova G.J.	*Psixologiya fanlari doktori, professor (Qozog‘iston);*
Sibel Sönmaz	*Pedagogika fanlari doktori, professor (Turkiya);*
Shafiyeva I.I.	*Psixologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon);*
Palatkina G.V.	*Pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya);*
Xazova S.A.	*Psixologiya fanlari doktori, dotsent (Rossiya);*
Ibragimov X.I.	*Pedagogika fanlari doktori, akademik;*
Mirqosimova M.	*Pedagogika fanlari doktori, akademik;*
Quchqorova N.M.	*Pedagogika fanlari doktori, professor;*
Niyozmetova R. X.	*Pedagogika fanlari doktori, professor;*
Muslimov N.A.	*Pedagogika fanlari doktori, professor;*
Xalilova Sh.T.	*Pedagogika fanlari doktori, professor;*
Xodjayev B.X.	*Pedagogika fanlari doktori, professor;*
Kadirova M.R.	*Pedagogika fanlari doktori, professor;*
Nazarova D.A.	*Pedagogika fanlari nomzodi, professor;*
Shoumarov G‘. B.	*Psixologiya fanlari doktori, akademik;*
Karimova V.M.	*Psixologiya fanlari doktori, professor;*
Atabaeva N.B.	*Psixologiya fanlari doktori, professor;*
Abdullaeva D.U.	*Psixologiya fanlari doktori, professor;*
Baykunusova G.Y.	*Psixologiya fanlari doktori, professor;*
Qarshieva D.S.	*Psixologiya fanlari doktori, professor;*
Alimbayeva Sh.T.	*Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent;*
Nishanov S.Y.	*Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

Egamberdiyeva Farida Oktamovna, Melieva Iroda Khalilovna
Developing cognitive activity in primary school students: an empirical study 4
Mansurov Uktamjon Nosirboyevich
Ta'lim va tarbiya uzviyligi 14
Taylakova Dilnoza Norbekovna
Ona tili darslarida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishning didaktik asoslari 21
Yusupov Nodir Baxriddinovich
Kasbiy ta'lim tashkilotlarida pedagog kadrlar menejmentini takomillashtirish yo'llari 28
Mamanazarov Uchqun Burxon o'g'li
Moral development and moral reasoning analyses 37
Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik nazokatni shakllantirish omillari 46
Исроилов Хамиджон Исроилович
Перспективы использования современных инновационных технологий в образовании 55
Saidova Maxsudaxon Abbasovna
Pragmatik kompetensiyaning shakllanishi va uning chet tili ta'limidagi o'rni 65
Jakbarova Sevaraxon Mamurjanovna
Zamonaviy tarjima jarayonida inson tafakkuri va mashina tarjimasining o'rni 75
Ismatova Maftuna Baxtiyor qizi
Fonologik jarayonlarning lingvistik tahlili 85
Ergasheva Mohinur Dilmurod qizi
Rivojlangan davlatlarda inklyuziv ta'lim tajribasi va uni o'zbekiston ta'lim tizimida joriy etish 92

PSIXOLOGIYA

Boymatova Anorxol Gulmurodovna
Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanish faoliyat jarayoni 101
Rustamova Barno Abduxalilovna
Insonning ruhiyatini ifodalovchi frazeologizimlar tahlili 109
Parpiyeva Shaxnoza Abdullayevna
Ontogenezda psixologik himoya mexanizmlarining rivojlanishi 116
Ernazarova Vazira Valijon qizi
Ijtimoiy psixologik so'rovnoma asosida talabalarda viktimlik pozitsiyasi tushunchalari tahlili 127
Kuyliyeva Orzigul Rajabboyevna
The influence of regional and environmental characteristics on the emotional development of elementary school students 136
Djangabayeva Dilinur Rustemovna
Gsi integratsiyasi sharoitida o'smirlar kognitiv faoliyatining passivlashuvi va metakognitiv nazorat samaradorligining pasayishi 144

PRAGMATIK KOMPETENSIYANING SHAKLLANISHI VA UNING CHET TILI TA'LIMIDAGI O'RNI

DIE ENTWICKLUNG DER PRAGMATISCHEN KOMPETENZ UND IHRE ROLLE IM FREMDSPRACHENUNTERRICHT

ФОРМИРОВАНИЕ ПРАГМАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ И ЕЁ РОЛЬ В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ

Saidova Maxsudaxon Abbasovna
Oriental universitet, Tillar-2 kafedrasi katta o'qituvchisi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti mustaqil izlanivchisi,
ORCID: 0000-0002-5087-6209,
Tel.: 998 90-952-85-14
E-mail: makhsudakhon78@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada pragmatik kompetensiyaning shakllanish jarayoni hamda uning chet tili, xususan nemis tilini o'qitish tizimidagi o'rni ilmiy va pedagogik nuqtayi nazardan batafsil tahlil etiladi. Tadqiqotda pragmatik kompetensiyaning asosiy tarkibiy komponentlari, jumladan nutq aktlari, kontekstual moslik, ijtimoiy rollar hamda madaniyatlararo omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik keng yoritiladi. Shuningdek, o'quvchilarda mazkur kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy didaktik yondashuvlar, interaktiv metodlar, rol o'yinlari, simulyatsion mashg'ulotlar hamda autentik materiallardan foydalanishning samaradorligi chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari pragmatik kompetensiya til birliklarini vaziyatga mos qo'llash, kommunikativ niyatni aniq ifodalash va samarali muloqotni ta'minlashda muhim omil ekanligini ko'rsatadi. Ushbu natijalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyati kengayadi va takomillashtiriladi.

Kalit so'zlar: *pragmatik kompetensiya, nemis tili, chet tilini o'qitish, kommunikativ kompetensiya, nutq aktlari, kontekst, madaniyatlararo kommunikatsiya, interaktiv metodlar.*

Annotation. In diesem Artikel wird der Prozess der Herausbildung der pragmatischen Kompetenz sowie ihre Rolle im Fremdsprachenunterricht, insbesondere im Deutschunterricht, aus wissenschaftlicher und pädagogischer Perspektive ausführlich analysiert. In der Untersuchung werden die grundlegenden Komponenten der pragmatischen Kompetenz, darunter Sprechakte, kontextuelle Angemessenheit, soziale Rollen sowie interkulturelle Faktoren und deren Wechselbeziehungen umfassend dargestellt.

Darüber hinaus wird die Wirksamkeit moderner didaktischer Ansätze zur Förderung dieser Kompetenz bei Lernenden eingehend analysiert, darunter interaktive Methoden, Rollenspiele, simulationsbasierte Übungen sowie der Einsatz authentischer Materialien. Die Ergebnisse der Studie zeigen, dass die pragmatische Kompetenz ein entscheidender

Faktor für die situationsgerechte Verwendung sprachlicher Mittel, die präzise Ausdrucksweise kommunikativer Intentionen sowie für eine effektive Kommunikation ist.

Auf Grundlage dieser Ergebnisse eröffnen sich erweiterte Möglichkeiten zur Entwicklung und Optimierung praktischer Empfehlungen.

Keywords: *pragmatische Kompetenz, Deutsch als Fremdsprache, Fremdsprachenunterricht, kommunikative Kompetenz, Sprechakte, Kontext, interkulturelle Kommunikation, interaktive Methoden.*

Аннотация. В данной статье с научно-педагогической точки зрения подробно анализируется процесс формирования прагматической компетенции, а также её роль в системе обучения иностранным языкам, в частности немецкому языку. В исследовании широко освещаются основные структурные компоненты прагматической компетенции, включая речевые акты, контекстуальную уместность, социальные роли и взаимосвязь межкультурных факторов. Кроме того, проводится углублённый анализ эффективности современных дидактических подходов, интерактивных методов, ролевых игр, симуляционных занятий и использования аутентичных материалов, направленных на развитие данной компетенции у обучающихся. Результаты исследования показывают, что прагматическая компетенция является важным фактором в уместном использовании языковых единиц в конкретной ситуации, точном выражении коммуникативного намерения и обеспечении эффективного общения. На основе полученных результатов расширяются и совершенствуются возможности разработки практических рекомендаций.

Ключевые слова: *прагматическая компетенция, немецкий язык, обучение иностранным языкам, коммуникативная компетенция, речевые акты, контекст, межкультурная коммуникация, интерактивные методы.*

KIRISH

Tilni o‘rganish odatda grammatik qoidalar va so‘z boyligi bilan boshlanadi. Biroq real muloqot vaziyatida bu yetarli emas. Masalan, nemis tilida do‘stlar bilan suhbatda “Hallo, wie geht’s?” deyish odatiy bo‘lsa, rasmiy uchrashuvda “Guten Tag, wie geht es Ihnen?” deb murojaat qilish lozim. Shu nuqtada pragmatik kompetensiya tushunchasi muhimlashadi (Bachman L., 1990:102).

Tilni o‘rganish haqida o‘ylaganimizda, odatda birinchi bo‘lib grammatik qoidalar va so‘z boyligi yodga tushadi. Go‘yo tilni egallash degani – faqat to‘g‘ri gap tuza olish, xatolardan qochish va lug‘atni kengaytirishdan iboratdek tuyuladi (Thomas J., 1983:92). Biroq real hayotdagi muloqotga qarasak, bu tasavvur biroz soddalashtirilganini sezamiz. Masalan, nemis tilini o‘rganuvchi mukammal gap tuzgan bo‘lsa ham, rasmiy uchrashuvda noto‘g‘ri murojaat shaklini tanlashi mumkin: “Hallo Leute” deb boshlaganida rasmiy

uchrashuv kontekstida bu murojaat juda norasmiy va mos kelmasligi ehtimoli bor. Yoki tanishlar bilan suhbatda juda rasmiy so‘zlar, masalan “Guten Tag, meine Damen und Herren”, ishlatilib suhbat tabiiyligini yo‘qotishi ham mumkin. Shu paytda tilni faqat qoidalar orqali bilish yetarli emasligini ko‘ramiz – vaziyatni, tinglovchini, uning madaniy va ijtimoiy kontekstini ham hisobga olish kerak bo‘ladi.

Tilning samarali ishlatilishi faqat qoidalarni bilish bilan cheklanmaydi. Til – bu ijtimoiy hodisa, u shaxslar, vaziyatlar va madaniyatlararo munosabatlar bilan chambarchas bog‘liq (Hymes D., 1972:54). Masalan, nemis tilida “Wie geht’s?” iborasi norasmiy salomlashish shakli bo‘lib, rasmiy vaziyatda odatda “Wie geht es Ihnen?” deb savol beriladi – bu farq nemis madaniyatida juda seziladi. Talaba nemis tilida “Danke” deb javob berganida bu oddiy minnatdorchilik bo‘lsa, rasmiy nutqda “Vielen Dank für Ihre Aufmerksamkeit” kabi to‘la ifoda kontekstdan kelib chiqib ko‘proq hurmat bildiradi. Shu sababli, tilni o‘rganishda nafaqat gap tuzishni, balki uning kontekstga mosligini, ohangini va ijtimoiy qoidalarini tushunishni ham rivojlantirish kerak. Shu nuqtada pragmatik kompetensiya tushunchasi muhimlashadi. Bu – til birliklarini kontekstga mos holda qo‘llay olish qobiliyati. Ya’ni inson nafaqat nima deyishni, balki qachon, qanday va kimga gapirishni biladi (Thomas J., 1983:95). Ba’zan bu sezgi darajasida ishlaydi, lekin aslida uning ortida murakkab ijtimoiy va madaniy mexanizmlar turadi. Masalan, nemis tilida ish joyida elektron pochta yozish jarayonida “Mit freundlichen Grüßen” – juda rasmiy salomlashish shakli hisoblanadi, lekin do‘stona xabarda “Viele Grüße” ishlatish muloqotni iliqlashtiradi. Shu sababli, pragmatik kompetensiya – tilni haqiqiy hayotiy muloqotda samarali qo‘llashning ajralmas qismi hisoblanadi.

Tilshunoslik tarixida bu tushuncha bosqichma-bosqich shakllangan. Dastlab tilni faqat strukturaviy tizim sifatida o‘rganish ustuvor bo‘lgan (Hymes D., 1972:56). Keyinchalik, kommunikativ yondashuv paydo bo‘lib, tilning ijtimoiy va muloqot funksiyalariga e’tibor kuchaygan (Savignon S., 2002:37). XX asrning oxiri va XXI asr boshida esa pragmatik kompetensiya nafaqat nazariy jihatdan, balki pedagogik amaliyotda ham markaziy mavqega ega ekanligi ko‘rsatilmoqda. Nemis tilini o‘qitishda real kontekst – masalan Germaniyada do‘stona salomlashish, rasmiy uchrashuv, talabalar bilan suhbat kabi vaziyatlar orqali pragmatik tushunchalar mustahkamlanadi.

Ushbu maqolada pragmatik kompetensiyaning tarixiy rivojlanishi, uning nazariy va tarkibiy jihatlari, shuningdek, chet tili o‘qitish jarayonidagi roli tahlil qilinadi. Shu bilan birga, pragmatik kompetensiyani shakllantirish bo‘yicha zamonaviy pedagogik yondashuvlar va innovatsion metodlar ham ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari o‘quvchilarning tilni nafaqat “bilishi”, balki uni real hayotdagi muloqotda samarali qo‘llay olishlarini tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga, maqola nemis tilida ta’lim olayotgan o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi muloqot sifatini oshirishga yo‘naltirilgan amaliy tavsiyalarni ham taqdim etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Pragmatik kompetensiya tushunchasi chet tili o‘qitish nazariyasida muhim o‘rin tutadi. U tilni faqat grammatik va leksik jihatdan bilishdan ko‘ra, uni real kommunikativ vaziyatlarda mos va samarali qo‘llay olish qobiliyatini bildiradi. Ushbu mavzuga oid adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, pragmatik kompetensiya XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslik va pedagogikada alohida yo‘nalish sifatida shakllangan.

Pragmatik kompetensiyaning ilmiy asosini D. Hymes (1972) yaratgan bo‘lib, u “kommunikativ kompetensiya” tushunchasini taklif qildi. Hymes tilni bilishni nafaqat grammatik qoidalarni egallash, balki ijtimoiy va madaniy kontekstda to‘g‘ri qo‘llay olish deb hisoblagan (Hymes D., 1972:54-60). Bu g‘oya keyinchalik ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan rivojlantirildi.

G. Leech (1983) pragmatikani “tilning ijtimoiy maqsadlarda qo‘llanilishi” deb ta’riflagan va nutq aktlari nazariyasini chuqur o‘rgangan (1983:45-57). J. Thomas (1983) esa pragmatik xatolar va madaniyatlararo pragmatik muvaffaqiyatsizliklar muammosini birinchi bo‘lib chuqur tahlil qilgan. Uning fikricha, grammatik jihatdan to‘g‘ri gap ham noto‘g‘ri kontekstda qo‘llansa, muloqot muvaffaqiyatsiz yakunlanishi mumkin (Thomas J., 1983:91-123).

L. Bachman (1990) pragmatik kompetensiyani kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqib, uni tilshunoslik va pedagogika o‘rtasidagi ko‘priqqa aylantirdi. Bachman pragmatik kompetensiyani illokutsion va sotsiolingvistik kompetensiyalarga ajratgan (Bachman L., 1990:102-145). Bu tasnif hozirgi kunda ham chet tili o‘qitish dasturlarida keng qo‘llanilmoqda.

C. Kramsch (1993) pragmatik kompetensiyani madaniyatlararo muloqot kontekstida o‘rganib, til o‘qitishda madaniy kontekstning muhimligini ta’kidlagan (Kramsch C., 1993:28-58). S. Savignon (2002) kommunikativ yondashuvni rivojlantirib, pragmatik ko‘nikmalarni shakllantirishda interaktiv metodlarning ahamiyatini ko‘rsatgan (Savignon S., 2002:33-62).

O‘zbek tilidagi tadqiqotlarda ham bu mavzu o‘rganilgan. Ahmadov Sh. (2008), Rasulova D. (2012) va Karimov O. (2015) ishlarida chet tili o‘qitishda pragmatik yondashuvlar va milliy madaniyatni hisobga olish masalalari tahlil qilingan.

So‘nggi yillarda pragmatik kompetensiyani rivojlantirishda rol o‘yinlari, simulyatsiyalar, autentik materiallar va raqamli texnologiyalardan foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, grammatik kompetensiya yuqori bo‘lgan talabalar pragmatik jihatdan zaif bo‘lsa, real muloqotda qiyinchilikka duch kelishadi (Kasanga L., 2007; Bardovi-Harlig K., 1996).

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili pragmatik kompetensiyaning til o‘qitishda markaziy o‘rin tutishini tasdiqlaydi. D. Hymes, G. Leech, J. Thomas, L. Bachman va C. Kramsch kabi olimlarning ishlari nazariy asos yaratgan bo‘lsa, milliy tadqiqotlar (Ahmadov Sh.,

Rasulova D. va boshqalar) bu nazariyani o‘zbek maktab va oliy ta’lim amaliyotiga moslashtirishga yordam bermoqda. Biroq, pragmatik kompetensiyani shakllantirish bo‘yicha amaliy metodikalarni yanada chuqur o‘rganish va raqamli vositalarni integratsiya qilish hali dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot nazariy va tahliliy yondashuvlarga asoslanadi. Unda pragmatik kompetensiyaning shakllanish jarayoni tarixiy va tizimli tahlil orqali o‘rganildi. Diskurs tahlili yordamida til birliklarining real kommunikativ vaziyatlarda qo‘llanishi ko‘rib chiqildi. Shuningdek, pedagogik tahlil asosida chet tili ta’limida pragmatik ko‘nikmalarni rivojlantirish usullari baholandi. Tadqiqotda rol o‘yinlari, simulyatsiya va interaktiv metodlarning samaradorligi umumlashtirildi. Olingan natijalar asosida pragmatik kompetensiyani shakllantirishga oid amaliy yondashuvlar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar natijasiga ko‘ra, pragmatik kompetensiya tushunchasining shakllanishi bir necha bosqichdan iborat ekani aniqlandi (Thomas J., 1983:101). Tadqiqotlar ko‘rsatdiki, ushbu jarayon faqat nazariy jihatdan rivojlanib qolmagan, balki uning amaliy pedagogik ahamiyati ham asta-sekin kuchaygan (Bachman L., 1990:115).

Dastlabki davrda tilni o‘rganishda asosiy e’tibor til strukturasi va grammatikaga qaratilgan (Hymes D., 1972:60). Tilni bilish ko‘pincha grammatik qoidalarni egallash bilan tenglashtirilgan. Bu yondashuv nemis tilida gap tuzish uchun foydali bo‘lishi mumkin, masalan “Ich habe ein Buch gelesen” – grammatik jihatdan to‘g‘ri gap, lekin rasmiy uchrashuvda “Ich habe Ihr Schreiben gelesen” kabi murojaat yanada mos bo‘ladi. Shu tarzda grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘lgan iboralar ham, kontekstdan kelib chiqib, muloqot samaradorligini oshirmaydi (Kasanga F., 2007:229).

Keyingi bosqichda kommunikativ yondashuv shakllandi (Savignon S., 2002:50). Bu yondashuv tilni faqat qoidalar to‘plami sifatida emas, balki real muloqot vositasi sifatida ko‘rishga olib keldi. Natijada kommunikativ kompetensiya tushunchasi paydo bo‘lib, uning tarkibida pragmatik komponent alohida ajralib chiqdi (Leech G., 1983:53). Masalan, nemis tilida rasmiy konferensiyada “Darf ich Ihre Aufmerksamkeit für einen Moment haben?” deb so‘rash, norasmiy suhbatda esa “Könnt ihr mal zuhören?” deb murojaat qilish – pragmatik jihatdan farq qiladi va o‘quvchilarga kontekstga moslashish qobiliyatini o‘rgatadi (Kramsch C., 1993:41).

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar ko‘pincha grammatik xatolardan ko‘ra pragmatik xatolar tufayli qiyinchilikka duch keladi (Thomas J., 1983:104). Masalan, nemis tilida rasmiy uchrashuvda “Hey, wie geht’s?” deb murojaat qilish yoki rasmiy yozishmalarda juda qulay va do‘stona iboralarni ishlatish muloqotning samaradorligini pasaytiradi (Ahmadov Sh., 2008:82). Shu sababli pragmatik xatolar tilni tushunishga

bo‘lgan qobiliyatga to‘sqinlik qiladi, hatto grammatika mukammal bo‘lsa ham (Bachman L., 1990:118).

Zamonaviy yondashuvlarda pragmatik kompetensiya bir nechta tarkibiy qismlarga ajratiladi:

1. Nutq aktlarini tushunish va ulardan foydalanish – so‘z va iboralarni maqsadga muvofiq ishlatish, so‘rov, iltimos, taklif va tavsiyalarning vaziyatga mosligini bilish. Misol: nemis tilida do‘stona xabarda “Kannst du mir bitte helfen?” deb yozish oddiy so‘rov, lekin rasmiy xatda “Könnten Sie mir bitte behilflich sein?” deb yozish talab etiladi (Leech G., 1983:55).

2. Kontekstni inobatga olish – vaziyat, auditoriya, ijtimoiy va madaniy sharoitni hisobga olgan holda nutq shaklini tanlash. Masalan, universitetda talabalar o‘rtasida “Guten Morgen zusammen”, professor bilan rasmiy uchrashuvda esa “Guten Morgen, Herr Professor” ishlatiladi (Kramsch C., 1993:43).

3. Ijtimoiy rollarni farqlash – suhbatdoshning ijtimoiy mavqei, yosh guruhi, ish joyi yoki shaxsiy aloqalariga qarab nutqning ohangini moslashtirish. Misol: ish joyida yangi hamkasbga murojaatda “Freut mich, Sie kennenzulernen”, do‘stga murojaatda esa “Schön, dich zu sehen” (Thomas J., 1983:107).

4. Madaniy normalarga moslashish – boshqa madaniyat odatlarini tushunish va ularga hurmat bilan moslashish. Masalan, nemis tilida “Danke schön” iborasi vaziyatga qarab oddiy yoki rasmiy ohangda ishlatiladi (Kasanga L., 2007:232).

Chet tili o‘qitish jarayonida esa quyidagi natijalar kuzatildi:

1. Pragmatik kompetensiya rivojlangan o‘quvchilar muloqotda ancha moslashuvchan bo‘ladi (Bachman L., 1990:120).

2. Rol o‘yinlari va simulyatsiyalar samarali vosita hisoblanadi (Savignon S., 2002:53). Masalan, nemis tilidagi rasmiy uchrashuv yoki mehmon bilan suhbat simulyatsiyalari.

3. Madaniyatlararo komponent muhim ahamiyatga ega (Kramsch C., 1993:45).

Qiziq jihati shundaki, oddiy, hatto grammatik jihatdan murakkab bo‘lmagan gaplar ham to‘g‘ri kontekstda juda samarali ishlaydi. Masalan, “Danke” yoki “Thank you” iborasi oddiy, lekin rasmiy, norasmiy yoki do‘stona vaziyatda o‘z ohangi va konteksti bilan ma’nosini to‘liq etkazadi (Ahmadov Sh., 2008:85). Shu bilan pragmatikaning markaziy roli yana bir bor namoyon bo‘ladi (Leech G., 1983:57).

Natijalarni tahlil qilganda, tilni o‘rganish jarayoni faqat bilim yig‘ishdan iborat emas, balki doimiy moslashuv va ijtimoiy kontekstga integratsiya jarayoni ekanligi ayon bo‘ladi (Thomas J., 1983:110). Tilning samarali ishlatilishi shunchaki grammatik qoidalarni bilish bilan cheklanmaydi; u tinglovchi, vaziyat va madaniyatni hisobga olish qobiliyatini ham talab qiladi (Kramsch C., 1993:48). Masalan, nemis tilida rasmiy uchrashuvda **“**Könnten Sie mir bitte die Unterlagen geben?”deb so‘rash kerak bo‘lsa,

do‘stlar bilan suhbatda “Kannst du mir die Unterlagen geben?” yetarli bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, pragmatik kompetensiya til o‘rganishning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraladi (Bachman L., 1990:125).

Pragmatik kompetensiyaning o‘rni haqida turli fikrlar mavjud. Ba’zi tadqiqotchilar uni qo‘shimcha komponent sifatida baholasa, boshqalar markaziy element sifatida ko‘radi (Savignon S., 2002:57). Biroq amaliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu ikki yondashuvni qarama-qarshi deb qabul qilish noto‘g‘ri (Leech G., 1983:60). Haqiqatan ham, grammatik kompetensiya va pragmatik kompetensiya bir-birini to‘ldiradi: biri bo‘lmasa, ikkinchisi samarali ishlay olmaydi (Thomas J., 1983:112). Masalan, o‘quvchi grammatik jihatdan to‘g‘ri gap tuzsa ham, vaziyatga mos kelmagan murojaat shakli yoki noaniq ohang sababli muloqot muvaffaqiyatsiz bo‘lishi mumkin (Kasanga L., 2007:235). Nemis tilida rasmiy maktubda “Sehr geehrte Frau Müller, ich möchte Ihnen für Ihre Unterstützung danken” deb yozish lozim, oddiy grammatik jihatdan “Hallo Frau Müller, danke für deine Hilfe” ham to‘g‘ri bo‘lsa-da, rasmiylik darajasini yetarli ifodalamaydi.

Madaniyat omili pragmatik kompetensiya shakllanishida alohida ahamiyatga ega (Kramsch C., 1993:50). Har bir til o‘zining yashirin ijtimoiy va madaniy qoidalariga ega bo‘lib, ular o‘rganilmasa, tilni to‘liq egallash qiyinlashadi (Bachman L., 1990:130). Masalan, nemis tilida “Darf ich Sie etwas fragen?” degan ibora rasmiy va muloyim so‘rovni bildiradi, lekin boshqa madaniyatlar uchun shunday ibora tushunarli bo‘lmasligi mumkin (Savignon S., 2002:60). Shu nuqtayi nazardan, madaniyatlararo tafovutlarni hisobga olgan holda til o‘rganish va o‘qitish samaradorligi oshadi (Ahmadov Sh., 2008:88).

Chet tili ta’limida ko‘pincha grammatikaga ko‘proq e’tibor qaratiladi, real muloqot vaziyatlari esa yetarlicha yoritilmaydi. O‘quvchilar darsliklarda mukammal gap tuzish qoidalarini o‘rganadi, lekin rasmiy uchrashuv, norasmiy suhbat yoki ijtimoiy tadbir kabi kontekstlarda nutqning mosligini mustaqil ravishda aniqlashda qiyinchilikka duch keladi (Thomas J., 1983:115). Shu yerda innovatsion texnologiyalar muammoni yumshatishga yordam beradi (Savignon S., 2002:62). Masalan, nemis tilida autentik video materiallar va onlayn interaktiv platformalar o‘quvchini rasmiy va norasmiy kontekstlarga tayyorlaydi.

Pragmatik kompetensiya qanday shakllanadi degan savol ham muhimdir (Bachman L., 1990:135). Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, u nafaqat nazariya orqali, balki amaliy tajriba orqali ham rivojlanadi. Ya’ni o‘quvchi bir tomondan grammatik va nutq aktlari nazariyasini o‘rganadi, boshqa tomondan esa vaziyatga moslashuvni va tinglovchiga yo‘naltirilgan muloqotni amalda sinab ko‘radi (Thomas J., 1983:118). Shu ikki jarayon bir-birini to‘ldiradi va mustahkamlaydi (Kasanga L., 2007:238). Misol: nemis tilida darslik mashqlari orqali “Könnten Sie mir bitte helfen?” va “Kannst du mir helfen?” iboralarini vaziyatga mos ishlatishni o‘rgatish samarali bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Pragmatik kompetensiya tilni real muloqotda samarali qo‘llash qobiliyatini oshiradi. Bu nafaqat grammatik qoidalarga rioya qilish, balki nutqni vaziyatga, tinglovchiga va madaniy kontekstga moslash orqali ma’no yaratish imkonini beradi. Masalan, nemis tilida do‘stlar bilan suhbatda “Danke!” deb aytish yetarli bo‘lsa, rasmiy uchrashuvda “Ich danke Ihnen vielmals” deyish lozim, chunki ohang va shakl kontekstga mos bo‘lishi muhim.

2. Tarixiy rivojlanish pragmatik kompetensiyaning shakllanishiga ta’sir qilgan. Dastlab strukturaviy yondashuv bilan uyg‘unlashgan, keyinchalik kommunikativ yondashuv bilan uzviy bog‘lanib, tilning ijtimoiy va muloqot funksiyalarini hisobga olgan holda rivojlangan. Shu sababli, o‘quvchi nafaqat grammatik jihatdan to‘g‘ri gap tuzishni, balki uning muloqotdagi rolini ham tushunadi. Masalan, nemis tilida rasmiy va norasmiy murojaat shakllarini farqlash (“Sie” va “du”) o‘quvchilarni kontekstga moslashishga o‘rgatadi.

3. Chet tili o‘qitishda pragmatik kompetensiyani rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilar ko‘pincha grammatik jihatdan mukammal gaplarni vaziyatga mos ishlata olmaslik sababli muloqotda qiyinchilikka duch keladi. Shu bois pedagogik jarayonda interaktiv metodlar, rol o‘yinlari, simulyatsiyalar, autentik materiallar va zamonaviy texnologiyalar samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Masalan, nemis tilida onlayn simulyatsiyalar orqali rasmiy uchrashuv yoki do‘stona suhbat kontekstida murojaat shakllarini amalda sinash mumkin.

4. Tilni bilish – bu faqat qoidalarni egallash emas**.** Tilni mukammal egallash – vaziyatni anglash, muloqot ishtirokchilarini his qilish va so‘zni o‘rinli ishlata olishdan iborat. Misol uchun, nemis tilida kichik iboralar (“Bitte”, “Entschuldigung”) vaziyatga mos ishlatilganda katta muloqot samaradorligini beradi. Shu bilan, pragmatik kompetensiya nafaqat nazariy tahlil uchun, balki chet tili o‘qitishda amaliy pedagogik yondashuvlarni shakllantirish va til egallash jarayonini samarali qilish uchun markaziy ahamiyatga ega ekanligi yana bir bor tasdiqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ahmadov Sh. (2008). Chet tilini o‘qitishda pragmatik yondashuvlar. Toshkent: O‘qituvchi, 75-90 b.
2. Bachman L. F. (1990). Fundamental Considerations in Language Testing. Oxford: Oxford University Press, 102-145 b.
3. Brown H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching (5th ed.). New York: Pearson Education, 45-68 b.
4. Ellis R. (2008). The Study of Second Language Acquisition. Oxford: Oxford University Press, 101-120 b.

5. Hymes D. (1972). On Communicative Competence. Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 54-60 b.
6. Kasanga L. (2007). Pragmatics and Language Learning. London: Routledge, 221-238 b.
7. Kasper G., Blum-Kulka, S. (1993). Interlanguage Pragmatics. Oxford: Oxford University Press, 33-57 b.
8. Kramsch C. (1993). Context and Culture in Language Teaching. Oxford: Oxford University Press, 28-58 b.
9. Leech G. (1983). Principles of Pragmatics. London: Longman, 45-57 b.
10. Savignon S.J. (2002). Interpreting Communicative Language Teaching: Contexts and Concerns in Teacher Education. New Haven: Yale University Press, 33-62 b.
11. Thomas J. (1983). Cross-Cultural Pragmatic Failure. Applied Linguistics, 4(2), 91-123 b.
12. Bardovi-Harlig K. (1996). Pragmatics and Language Teaching: Bringing Pragmatics into the Classroom. Washington, D.C.: TESOL, 12-40 b.
13. Vygotsky L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 25-50 b.
14. Yule G. (1996). Pragmatics. Oxford: Oxford University Press, 10-35 b.
15. Muhammadov M. (2014). Komparativ iboralar va ularning madaniy ifodalanishi. Toshkent: Iqtisodiyot, 102 b.
16. Gazizov R. (2010). Til pedagogikasida innovatsion texnologiyalar. Toshkent: Fan, 55-78 b.
17. Rasulova D. (2012). Chet tilida muloqot va pragmatik ko‘nikmalar. Toshkent: O‘qituvchi, 40-63 b.
18. Karimov O. (2015). Ingliz tilini o‘qitishda pragmatik yondashuvlar. Toshkent: Akademiya, 30-52 b.

REFERENCES:

1. Ahmadov Sh. (2008). Chet tilini o‘qitishda pragmatik yondashuvlar. Toshkent: O‘qituvchi, 75-90 b. (In Uzbek)
2. Bachman L. F. (1990). Fundamental Considerations in Language Testing. Oxford: Oxford University Press, 102-145 b.
3. Brown H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching (5th ed.). New York: Pearson Education, 45-68 b.
4. Ellis R. (2008). The Study of Second Language Acquisition. Oxford: Oxford University Press, 101-120 b.
5. Hymes D. (1972). On Communicative Competence. Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 54-60 b.

6. Kasanga L. (2007). Pragmatics and Language Learning. London: Routledge, 221-238 b.

7. Kasper G., Blum-Kulka, S. (1993). Interlanguage Pragmatics. Oxford: Oxford University Press, 33-57 b.

8. Kramsch C. (1993). Context and Culture in Language Teaching. Oxford: Oxford University Press, 28-58 b.

9. Leech G. (1983). Principles of Pragmatics. London: Longman, 45-57 b.

10. Savignon S.J. (2002). Interpreting Communicative Language Teaching: Contexts and Concerns in Teacher Education. New Haven: Yale University Press, 33-62 b.

11. Thomas J. (1983). Cross-Cultural Pragmatic Failure. Applied Linguistics, 4(2), 91-123 b.

12. Bardovi-Harlig K. (1996). Pragmatics and Language Teaching: Bringing Pragmatics into the Classroom. Washington, D.C.: TESOL, 12-40 b.

13. Vygotsky L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 25-50 b.

14. Yule G. (1996). Pragmatics. Oxford: Oxford University Press, 10-35 b.

15. Muhammadov M. (2014). Komparativ iboralar va ularning madaniy ifodalanishi. Toshkent: Iqtisodiyot, 102 b. (In Uzbek)

16. Gazizov R. (2010). Til pedagogikasida innovatsion texnologiyalar. Toshkent: Fan, 55-78 b. (In Uzbek)

17. Rasulova D. (2012). Chet tilida muloqot va pragmatik ko‘nikmalar. Toshkent: O‘qituvchi, 40-63 b. (In Uzbek)

18. Karimov O. (2015). Ingliz tilini o‘qitishda pragmatik yondashuvlar. Toshkent: Akademiya, 30-52 b. (In Uzbek)

Oriental universitetining
“Innovatsion pedagogika va psixologiya”
nomli jurnali

Jurnal Oliy o‘quv yurtlari hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.
Maqola muallifining fikri tahririyat fikrini ifodalamaydi.

INNOVATSION PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

Bosh muharrir: **Nishanova Z. T.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Egamberdiyeva F. O.**

Mas’ul muharrir: **Umarov B. M.**

Musahhih: **Norkulova G.S**

Manzil: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Norzatepa ko‘chasi, 52.

Telefon: +998 93 004-57-77. Murojaat uchun: https://t.me/Innovative_Pedagogy_Psychology

“Innovatsion pedagogika va psixologiya” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining
№ 061546 raqamli guvohnomasi bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Oriental universiteti Kengashining 2026-yil 28-aprel, 6-sonli
yig‘ilish bayonnomasiga asosan nashrga ruxsat etildi.